

MUHANDISLIK

& IQTISODIYOT

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

No1
MAXSUS SON

2026

YANVAR



Milliy nashrlar

OAK: <https://oak.uz/pages/4802>

05.00.00 – Texnika fanlari

08.00.00 – Iqtisodiyot fanlar



Google Scholar

OPEN ACCESS

ULRICHSWEB[™]
GLOBAL SERIALS DIRECTORY

Academic
Resource
Index
ResearchBib

ISSN
INTERNATIONAL
STANDARD
SERIAL
NUMBER
INTERNATIONAL CENTRE

CYBERLENINKA

OpenAIRE

ROAD

INDEX COPERNICUS
INTERNATIONAL

BASE

Crossref

НАУЧНАЯ ЭЛЕКТРОННАЯ
БИБЛИОТЕКА
LIBRARY.RU

**BAKALAVR
TALABALARINIG
MAQOLALARI
TO'PLAMI**

РЭУ.РФ
РОССИЙСКИЙ ЭКОНОМИЧЕСКИЙ УНИВЕРСИТЕТ
ИМЕНИ Г.В. ПЛЕХАНОВА
ТАШКЕНТСКИЙ ФИЛИАЛ



muhandislik & iqtisodiyot

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

Elektron nashr, 57 sahifa,
yanvar, 2026-yil.

Bosh muharrir:

Zokirova Nodira Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori, DSc, professor

Bosh muharrir o'rinbosari:

Shakarov Zafar G'afforovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori, PhD, dotsent

Tahrir hay'ati:

Abduraxmanov Kalendar Xodjayeich, O'z FA akademigi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Sharipov Kongratbay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori, professor

Maxkamov Baxtiyor Shuxratovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Shaumarov Said Sanatovich, texnika fanlari doktori, professor

Turayev Bahodir Xatamovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Nasimov Dilmurod Abdulloyevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Allayeva Gulchexra Jalgasovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Arabov Nurali Uralovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Maxmudov Odiljon Xolmirzayeich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Xamrayeva Sayyora Nasimovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Bobonazarova Jamila Xolmurodovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Irmatova Aziza Baxromovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Bo'taboyev Mahammadjon To'ychiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Shamshiyeva Nargizaxon Nosirxuja kizi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor,

Xolmuxamedov Muhsinjon Murodullayeich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Xodjayeva Nodiraxon Abdurashidovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Amanov Otabek Amankulovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Qurbonov Samandar Pulatovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Zikriyoyev Aziz Sadulloyevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Tabayev Azamat Zaripbayevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sxay Lana Aleksandrovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Ismoilova Gulnora Fayzullayevna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Djumaniyazov Umrbek Ilxamovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Kasimova Nargiza Sabitdjanovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Kalanova Moxigul Baxritdinovna, dotsent

Ashurzoda Luiza Muxtarovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sharipov Sardor Begmaxmat o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sharipov Botirali Roxataliyevich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor

Tursunov Ulug'bek Sativoldiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Bauyetdinov Majit Janizaqovich, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti dotsenti, PhD

Botirov Bozorbek Musurmon o'g'li, Texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sultonov Shavkatjon Abdullayeich, Kimyo fanlari doktori, (DSc)

Jo'raeva Malohat Muhammadovna, filologiya fanlari doktori (DSc), professor.



muhandislik & iqtisodiyot

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

- 05.01.00 – Axborot texnologiyalari, boshqaruv va kompyuter grafikasi
- 05.01.01 – Muhandislik geometriyasi va kompyuter grafikasi. Audio va video texnologiyalari
- 05.01.02 – Tizimli tahlil, boshqaruv va axborotni qayta ishlash
- 05.01.03 – Informatikaning nazariy asoslari
- 05.01.04 – Hisoblash mashinalari, majmualari va kompyuter tarmoqlarining matematik va dasturiy ta'minoti
- 05.01.05 – Axborotlarni himoyalash usullari va tizimlari. Axborot xavfsizligi
- 05.01.06 – Hisoblash texnikasi va boshqaruv tizimlarining elementlari va qurilmalari
- 05.01.07 – Matematik modellash
- 05.01.11 – Raqamli texnologiyalar va sun'iy intellekt
- 05.02.00 – Mashinasozlik va mashinashunoslik
- 05.02.08 – Yer usti majmualari va uchish apparatlari
- 05.03.02 – Metrologiya va metrologiya ta'minoti
- 05.04.01 – Telekommunikatsiya va kompyuter tizimlari, telekommunikatsiya tarmoqlari va qurilmalari. Axborotlarni taqsimlash
- 05.05.03 – Yorug'lik texnikasi. Maxsus yoritish texnologiyasi
- 05.05.05 – Issiqlik texnikasining nazariy asoslari
- 05.05.06 – Qayta tiklanadigan energiya turlari asosidagi energiya qurilmalari
- 05.06.01 – To'qimachilik va yengil sanoat ishlab chiqarishlari materialshunosligi
- 05.08.03 – Temir yo'l transportini ishlatish
- 05.09.01 – Qurilish konstruksiyalari, bino va inshootlar
- 05.09.04 – Suv ta'minoti. Kanalizatsiya. Suv havzalarini muhofazalovchi qurilish tizimlari
- 10.00.06 – Qiyosiy adabiyotshunoslik, chog'ishtirma tilshunoslik va tarjimashunoslik
- 10.00.04 – Yevropa, Amerika va Avstraliya xalqlari tili va adabiyoti
- 08.00.01 – Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 – Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 – Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 – Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 – Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 – Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 – Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 – Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 – Jahon iqtisodiyoti
- 08.00.10 – Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 – Marketing
- 08.00.12 – Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 – Menejment
- 08.00.14 – Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 – Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 – Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 – Turizm va mehmonxona faoliyati

Ma'lumot uchun, OAK
Rayosatining 2024-yil 28-avgustdagi 360/5-son qarori bilan "Dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etishga tavsiya etilgan milliy ilmiy nashrlar ro'yxati"ga texnika va iqtisodiyot fanlari bo'yicha "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali ro'yxatga kiritilgan.

Muassis: "Tadbirkor va ishbilarmon" MChJ

Hamkorlarimiz:

1. Toshkent shahridagi G.V.Plexanov nomidagi Rossiya iqtisodiyot universiteti
2. Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
3. Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti" milliy tadqiqot universiteti
4. Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universiteti
5. Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti
6. Toshkent davlat transport universiteti
7. Toshkent arxitektura-qurilish universiteti
8. Toshkent kimyo-texnologiya universiteti
9. Jizzax politexnika instituti



MUNDARIJA

QIMMATLI QOG'OZLAR BOZORIDA MOLIYAVIY VOSITACHILARNING AHAMIYATI.....	8
Sattorova Mehriniso Komil qizi, Tuxsanov Eldor Dilmurod o'g'li	
ПРОБЛЕМЫ И ПЕРСПЕКТИВЫ РАЗВИТИЯ КУЛЬТУРНОГО ТУРИЗМА В САМАРКАНДСКОЙ ОБЛАСТИ.....	11
Уракулов Аббос Жасур угли, Сафарова Сабина Сирожиiddиновна, Санакулов Шахзод Мансур угли, Саттарова Зухра Илхомовна	
TIJORAT BANKLARIDA KAPITAL SAMARADORLIGINI OSHIRISH YO'LLARI	17
Karimov Diyor Umidjon o'g'li, Tuxsanov Eldor Dilmurod o'g'li	
IQTISODIYOTNI RAQAMLASHTIRISH SHAROITIDA STARTAP LOYIHALARNI QO'LLAB-QUVVATLASHNING MUHIM JIHATLARI	21
Abdullayev Firdavs Odiljon o'g'li, Ergashov Sherzod Abduxoliq o'g'li	
QISHLOQ XO'JALIGI MAXSULOTLARINI YETISHTIRISHDA IQLIM O'ZGARISHIGA MOSLASHISH BO'YICHA XALQARO TAJRIBA.....	27
Boratov Alijon Xolisboy o'g'li, Rasulova Muslimahon, Qo'ziboyeva Ozodxon Maxmudovna	
JAHON MOLIYAVIY TIZIMIDA RIVOJLANAYOTGAN DAVLATLARGA KAPITAL OQIMINI BAHOLASH.....	31
Boboqulov Samandar Shavkat o'g'li, X.X.Rejapov	
ANALYSIS OF THE STATE OF IMPLEMENTATION OF FINANCIAL INNOVATIONS IN BANKS.....	38
Umedov Abdullo, Khodjimamedov Akmal Ashurovich	
XIZMATLAR SOHASIDA RAQAMLASHTIRISH VA EKOLOGIK BARQARORLIK: ZAMONAVIY INTEGRATSIYA YO'NALISHLARI	44
A'zamova Feruza Abduholiq qizi, Kuldoshev Lazizjon Sharifovich	
EKOLOGIYANING INSON HAYOTIDAGI O'RNI VA ZAMONAVIY JAMIYAT RIVOJLANISHIDAGI AHAMIYATI.....	48
Jo'rayeva ferangiz Jamshid qizi, Karimova Sadoqat Amrilloevna	
ZAMONAVIY FRANSUZ GAZETA SARLAVHALARIDA POLIFONIK NUTQ VA STILISTIK EKSPRESSIVLIK.....	52
Ubaydulloyeva Ruxsora Mirpo'lot qizi, Jo'rayeva Maqsuda Muxammadovna	



ZAMONAVIY FRANSUZ GAZETA SARLAVHALARIDA POLIFONIK NUTQ VA STILISTIK EKSPRESSIVLIK

Ubaydulloyeva Ruxsora Mirpo'lot qizi

Filologiya va tillarni o'qitish ta'lim yo'nalishi
4-bosqich talabasi

Ilmiy rahbar:

Jo'rayeva Maqsuda Muxammadovna

Buxoro davlat universiteti
Fransuz filologiyasi kafedrası dotsenti, f.f.f.d. (PhD)
E-mail: m.m.jurayeva@buxdu.uz

Annotatsiya: Ushbu maqolada zamonaviy fransuz gazeta sarlavhalarida polifonik nutq va stilistik ekspressivlikning diskursiv xususiyatlari tahlil qilinadi. Tadqiqot materiali sifatida bugungi fransuz matbuotida keng qo'llanilayotgan analitik sarlavha modellari tanlangan. Maqolada polifoniya muallif ovozi, iqtibos keltirilgan shaxslar, ekspert bahosi hamda jamoatchilik fikrining yagona sarlavha doirasida uyg'unlashuvi orqali izohlanadi. Shuningdek, baholovchi leksika, savol va antiteza, sintaktik minimalizm kabi stilistik vositalarning ekspressiv ta'siri ochib beriladi. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, zamonaviy fransuz gazeta sarlavhalari nafaqat axborot yetkazadi, balki jamoatchilik fikrini shakllantirishda faol diskursiv mexanizm sifatida ham xizmat qiladi.

Kalit so'zlar: gazeta sarlavhasi, polifonik nutq, stilistik ekspressivlik, fransuz matbuoti, diskurs tahlili, baholovchi leksika.

Abstract: This article analyzes the discursive features of polyphonic speech and stylistic expressiveness in contemporary French newspaper headlines. As research material, the study selects analytical headline patterns widely used in today's French press. Polyphony is interpreted through the interaction of the authorial voice, quoted speakers, expert evaluation, and public opinion within a single headline. In addition, the article elucidates the expressive effect of stylistic devices such as evaluative lexis, interrogative and antithetical structures, and syntactic minimalism. The findings show that contemporary French newspaper headlines not only convey information but also function as an active discursive mechanism in shaping public opinion.

Keywords: newspaper headline, polyphonic speech, stylistic expressiveness, French press, discourse analysis, evaluative lexis.

Аннотация: В статье анализируются дискурсивные особенности полифонической речи и стилистической экспрессивности в современных французских газетных заголовках. В качестве материала исследования отобраны аналитические модели заголовков, широко представленные в современной французской прессе. Полифония интерпретируется через взаимодействие авторского голоса, цитируемых лиц, экспертной оценки и общественного мнения в пределах одного заголовка. Кроме того, раскрывается экспрессивный потенциал таких стилистических средств, как оценочная лексика, вопросительные и антитетические конструкции, а также синтаксический минимализм. Результаты исследования показывают, что современные французские газетные заголовки не только передают информацию, но и выступают активным дискурсивным механизмом формирования общественного мнения.

Ключевые слова: газетный заголовок, полифоническая речь, стилистическая экспрессивность, французская пресса, дискурс-анализ, оценочная лексика.



KIRISH

Zamonaviy fransuz ommaviy axborot vositalarida gazeta sarlavhalari axborotni yetkazishning eng ixcham, ammo eng ta'sirchan diskursiv birliklaridan biri sifatida namoyon bo'lmoqda. Raqamli axborot muhitida o'quvchi ko'pincha to'liq maqolani emas, balki aynan sarlavhani o'qish orqali voqelikni idrok etadi. Shu sababli bugungi fransuz matbuotida sarlavha faqat xabar beruvchi element emas, balki baholovchi, yo'naltiruvchi hamda ijtimoiy munosabatni shakllantiruvchi diskursiv vosita sifatida qaralmoqda. Energiya inqirozi, migratsiya, ijtimoiy jarayonlar yoki siyosiy islohotlarga oid sarlavhalarda ko'pincha voqeaning o'zi bilan bir qatorda unga nisbatan bildirilayotgan munosabat ham markazga chiqariladi. Ana shu jarayonda polifonik nutq va stilistik ekspressivlik zamonaviy fransuz gazeta sarlavhalarining asosiy tashkil etuvchi mexanizmlaridan biri sifatida namoyon bo'ladi.

Polifonik nutq tilshunoslikda bitta matnda bir nechta ovoz, nuqtayi nazar yoki diskursiv pozitsiyaning bir vaqtda mavjud bo'lishi bilan tavsiflanadi. Zamonaviy fransuz gazeta sarlavhalarida bu hodisa ayniqsa yaqqol ko'zga tashlanadi. Sarlavhada muallif ovozi ko'pincha siyosatchilar bayonoti, ekspert bahosi yoki jamoatchilik fikri bilan uyg'unlashib keladi. Masalan, iqtisodiy islohotlarga oid sarlavhalarda hukumat pozitsiyasi bilan ijtimoiy munosabatlar bir vaqtning o'zida ifodalanadi. Natijada sarlavha monologik emas, balki dialogik xarakter kasb etib, o'quvchini turli ovozlari o'rtasidagi munosabatni tahlil qilishga undaydi.

Zamonaviy fransuz gazeta sarlavhalarida muallif ovozi ko'pincha ochiq bayon etilmaydi. Muallif savol shakli, ehtimollik bildiruvchi birliklar yoki baholovchi metaforalar orqali "boshqa ovozlari"ni faollashtiradi. Masalan, savol tarzidagi sarlavhalar muallifni betarafdek ko'rsatsa-da, aslida muayyan ijtimoiy muammoni muhokamaga olib chiqishga xizmat qiladi. "Bahsli qaror", "mutaxassislar ogohlantirmoqda", "jamoatchilik munosabati" kabi birikmalar institutsional va kollektiv ovozlarni sarlavhaga olib kirib, polifonik effektning kuchayishiga zamin yaratadi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Zamonaviy ommaviy axborot vositalari diskursini o'rganishda gazeta sarlavhalari alohida tadqiqot obyekti sifatida qaraladi. P. Sharyodo (Charaudeau) media diskursning kommunikativ tabiatini tahlil qilib, sarlavha matnini talqin qilishda o'quvchini yo'naltiruvchi asosiy pragmatik vosita ekanini ta'kidlaydi. D. Mengeno (Maingueneau) esa diskurs tahliliga bag'ishlangan ishlarida sarlavhalarni institutsional nutqning muhim komponenti sifatida ko'rib, ularning ideologik va baholovchi yuklamasini ochib beradi. A. Bell va N. Fairclough tadqiqotlarida ham matbuot tili nafaqat axborot uzatuvchi, balki ijtimoiy munosabatlarni shakllantiruvchi diskursiv mexanizm sifatida talqin qilinadi. T. A. van Deyk esa yangiliklar diskursini tahlil qilish orqali sarlavhalarning kognitiv va ideologik ta'sirini asoslab beradi.

Polifonik nutq masalasi M. Baxtingning dialogizm konsepsiyasi bilan bevosita bog'liq bo'lib, u matnda bir nechta ovoz va nuqtayi nazarining bir vaqtda mavjud bo'lishini nazariy jihatdan asoslab bergan. K. Kerbra-Oresioni (Kerbrat-Orecchioni) enonsiasiya nazariyasi doirasida muallif subyektivligi va baholash kategoriyalarining til vositalari orqali qanday ifodalanishini ko'rsatadi. Ushbu yondashuvlar zamonaviy fransuz gazeta sarlavhalarida muallif ovozi, iqtibos keltirilgan shaxslar, ekspert bahosi va jamoatchilik fikrining bir diskursiv maydonda uyg'unlashuvini izohlash uchun muhim nazariy asos bo'lib xizmat qiladi.

Fransuz matbuoti, xususan Le Monde nashri materiallari asosida olib borilgan tadqiqotlarda sarlavhalarning analitik va baholovchi xarakteri alohida qayd etiladi. Mahalliy tadqiqotchilar, jumladan M. Jo'rayeva va hammualliflarining ishlarida fransuz media diskursida sarlavhalarning stilistik va pragmatik xususiyatlari, baholovchi leksikaning roli hamda ideologik yo'naltirilganlik masalalari yoritilgan. Ushbu tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, zamonaviy fransuz gazeta sarlavhalari polifonik nutq va stilistik ekspressivlik vositasida nafaqat axborot uzatadi, balki o'quvchining voqelikka bo'lgan munosabatini shakllantirishda faol ishtirok etadi. Shu bois mazkur mavzu bo'yicha olib borilgan ilmiy izlanishlar sarlavhalarni murakkab diskursiv konstruksiya sifatida talqin qilishga mustahkam nazariy va amaliy asos yaratadi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tahlil jarayonida diskurs tahlili, stilistik tahlil va pragmatik talqin metodlari uyg'un holda qo'llandi. Avvalo, sarlavhalardagi polifonik tuzilma aniqlanib, unda muallif ovozi, iqtibos keltirilgan shaxslar, ekspert bahosi va jamoatchilik fikrining qanday diskursiv munosabatga kirishishi tavsiflandi. Keyingi bosqichda baholovchi leksika, savol va antiteza, sintaktik minimalizm kabi stilistik vositalarning ekspressiv funksiyasi tahlil qilindi hamda ularning o'quvchiga pragmatik ta'siri izohlandi.

Shuningdek, kontekstual tahlil usuli orqali sarlavhalarning ijtimoiy va ideologik mazmuni, ularning jamoatchilik fikrini shakllantirishdagi roli baholandi. Natijalarni umumlashtirishda taqqoslash va tizimlashtirish metodlaridan foydalanilib, zamonaviy fransuz gazeta sarlavhalarida polifonik nutq va stilistik ekspressivlikning asosiy diskursiv mexanizmlari aniqlab berildi.



TAHLIL VA NATIJALAR

Zamonaviy fransuz matbuotida, xususan Le Monde tipidagi analitik nashrlarda, sarlavhalarda iqtibos va bilvosita nutqdan faol foydalaniladi. Tirnoq ichida berilgan baholovchi iboralar sarlavhani go'yoki neytral axborot sifatida ko'rsatadi. Biroq, aslida ular muayyan siyosiy yoki ijtimoiy pozitsiyani ilgari suradi. Iqtibos orqali muallif o'z bahosini yashirib, "boshqa ovoz"ni diskursga olib kiradi va o'quvchini tanqidiy talqinga undaydi.

Bugungi fransuz gazeta sarlavhalarida stilistik ekspressivlik asosan baholovchi leksika orqali shakllanadi. "Crise", "choc", "menace", "fracture", "impasse" kabi birliklar voqea-hodisani oddiy jarayon emas, balki keskin va murakkab holat sifatida talqin etadi. Bunday leksika o'quvchida muayyan emotsional munosabatni shakllantirib, sarlavhaning pragmatik ta'sirini kuchaytiradi.

Savol shaklidagi sarlavhalar zamonaviy fransuz gazeta diskursida polifonik nutqni yuzaga chiqaruvchi samarali stilistik vositalardan biri hisoblanadi. Bunday sarlavhalarda muallif aniq va yakuniy xulosa bermaydi, balki bir nechta ehtimoliy talqinlarni ochiq qoldiradi hamda o'quvchini faol interpretatsiyaga undaydi. Masalan, «Réforme des retraites : un compromis possible ?» kabi sarlavhalarda savol shakli hukumat pozitsiyasi, kasaba uyushmalari munosabati va jamoatchilik qarashlarini bir vaqtning o'zida faollashtiradi. Antitezaga asoslangan sarlavhalar esa ijobiy va salbiy konseptlarni yonma-yon qo'yish orqali turli ijtimoiy ovozlarning o'zaro munosabatini yuzaga keltiradi. Jumladan, «Transition écologique : espoir collectif ou fracture sociale ?» kabi sarlavhalarda "espoir" va "fracture" tushunchalari qarama-qarshi baholarni ifodalab, sarlavhaning polifonik va diskursiv xarakterini kuchaytiradi. Shu tariqa savol va antiteza zamonaviy fransuz sarlavhalarida ko'povozlilikni kuchaytiruvchi muhim mexanizmlar sifatida namoyon bo'ladi.

Zamonaviy fransuz gazeta sarlavhalarida sintaktik minimalizm keng qo'llanilib, u polifonik nutqni faollashtiruvchi muhim strukturaviy vosita hisoblanadi. Fe'lsiz yoki nominal konstruksiyalarga asoslangan sarlavhalar voqeani grammatik jihatdan to'liq bayon qilmaydi, balki uni konseptual darajada ifodalaydi. Masalan, «Crise énergétique : l'hiver de tous les dangers» kabi sarlavhalarda fe'lning yo'qligi voqeaning sababi yoki yechimini emas, balki xavf va noaniqlik konseptini markazga chiqaradi. Natijada sarlavhada ochiq aytilmagan, biroq taxmin qilinadigan baho o'quvchi ongida shakllanadi. Aynan shu "aytilmaganlik" holati jamoatchilik fikri, ijtimoiy munosabatlar yoki baholashlar kabi "boshqa ovozlarni" faollashtirib, yashirin polifonik effektini yuzaga keltiradi. Sintaktik minimalizm shu tariqa sarlavhaning stilistik ekspressivligini sezilarli darajada oshiradi.

Zamonaviy fransuz gazeta sarlavhalarida polifoniya ko'pincha ideologik yo'naltirilganlik bilan uzviy bog'liq bo'ladi. Bir nechta ovozning bitta sarlavhada jamlanishi muayyan siyosiy yoki ijtimoiy pozitsiyani ochiq targ'ib qilmasdan, uni "umumiy qabul qilingan" yoki "tabiiy" fikr sifatida talqin etish imkonini beradi. Masalan, «Sécurité : la fermeté comme réponse à la peur» kabi sarlavhalarda "peur" (qo'rquv) jamoatchilik munosabatini, "fermeté" (qat'iyat) esa hukumat diskursini ifodalaydi. Shu orqali sarlavha muayyan ideologik yechimni bilvosita asoslash vazifasini bajaradi. Polifoniya bu jarayonda muhim diskursiv vosita bo'lib, u sarlavhani oddiy axborot uzatishdan ko'ra jamoatchilik fikrini shakllantirishga yo'naltirilgan mexanizmga aylantiradi.

Zamonaviy fransuz matbuotida, ayniqsa Le Monde sarlavhalarida, polifonik nutq va stilistik ekspressivlik uyg'un holda namoyon bo'ladi. Ushbu nashr sarlavhalarida analitik va intellektual ohang ustuvor bo'lib, ular bir vaqtning o'zida muallif pozitsiyasi, ekspert bahosi va jamoatchilik munosabatini faollashtiradi. Masalan, «Ukraine : entre soutien européen et fatigue de l'opinion» kabi sarlavhalarda "soutien" (qo'llab-quvvatlash) va "fatigue" (charchoq) tushunchalari turli ijtimoiy ovozlarni ifodalaydi. Baholovchi leksika, savol shakllari, iqtibos va sintaktik minimalizm orqali sarlavha ko'p qatlamli mazmun kasb etadi hamda o'quvchini voqeaning ijtimoiy va ideologik kontekstini chuqur tahlil qilishga undaydi. Bu holat zamonaviy fransuz analitik matbuotining yuqori diskursiv madaniyatini yaqqol namoyon etadi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Xulosa qilib aytganda, zamonaviy fransuz gazeta sarlavhalarida polifonik nutq va stilistik ekspressivlik o'zaro uzviy bog'langan, bir-birini to'ldiruvchi asosiy diskursiv mexanizmlar sifatida namoyon bo'ladi. Savol va antiteza orqali yaratilgan ko'povozlilik sarlavhalarga semantik chuqurlik hamda interpretativ ochiqlik bag'ishlaydi, sintaktik minimalizm esa yashirin bahoni faollashtirib, o'quvchini faol talqinga undaydi. Baholovchi leksika va ideologik yo'naltirilganlik sarlavhalarning emotsional hamda pragmatik ta'sirini kuchaytirib, ularni jamoatchilik fikrini shakllantiruvchi muhim kommunikativ vositaga aylantiradi. Natijada zamonaviy fransuz gazeta sarlavhalari oddiy axborot birligidan chiqib, ijtimoiy, siyosiy va ideologik ma'nolarni mujassamlashtirgan murakkab diskursiv konstruksiya sifatida namoyon bo'ladi va fransuz matbuoti tilining rivojlanish tendensiyalarini yaqqol aks ettiradi.



FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Charaudeau, P. Langage et discours médiatique. – Paris: Hachette, 2005. – 256 p.
2. Maingueneau, D. L'analyse du discours. – Paris: Armand Colin, 2014. – 224 p.
3. Kerbrat-Orecchioni, C. L'énonciation: de la subjectivité dans le langage. – Paris: Armand Colin, 2009. – 320 p.
4. Bakhtin, M. M. The Dialogic Imagination. – Austin: University of Texas Press, 1981. – 444 p.
5. Bell, A. The Language of News Media. – Oxford: Blackwell, 1991. – 277 p.
6. Fairclough, N. Media Discourse. – London: Edward Arnold, 1995. – 214 p.
7. Van Dijk, T. A. News as Discourse. – Hillsdale: Lawrence Erlbaum, 1988. – 192 p.
8. Le Monde. Archives électroniques du journal Le Monde. – Paris, 2020–2025.
9. Jurayeva, M., & Sunnatova, F. (2023). Press and public speech. International Bulletin of Applied Science and Technology, 3(6), 417–420.
10. Pour une analyse fonctionnelle et discursive des titres de la presse française.
11. Жўпаева, М. Educational Research in Universal Sciences, 1(7), 422–428.
12. Jurayeva, M. M. (2021). «J'aime lire» et «Je bouquine». In: Qiyosiy adabiyotshunoslik, chog'ishtirma tilshunoslik va tarjimashunoslik: muammo, yechim va istiqbollar. Ilmiy-amaliy konferensiya materiallari. – Buxoro, 337–342.
13. Mukhammadovna, Jurayeva, M. (2021). Media relations in French discourse. Middle European Scientific Bulletin, ISSN 2694-9970.
14. Жўпаева, М. (2023). Газета ва унинг сарлавҳаларидаги ўзига хос хусусиятлар. Golden Brain, 1(7), 87–95.

muhandislik **& iqtisodiyot**

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir Alibekov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

1-Maxsus son.

Bakalavr talabalarining maqolalari to'plami

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali 26.06.2023-yildan
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan
№S-5669245 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: №095310.

**Manzilimiz: Toshkent shahri Yunusobod
tumani 15-mavze 19-uy**





+998 93 718 40 07



<https://muhandislik-iqtisodiyot.uz/index.php/journal>



t.me/yait_2100